KAR-SOQOV BOLALAR RIVOJLANISHINING PSIXOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ILMIY TATQIQOTLAR

Burhonova Marhaboxon Sodiqjon qizi
University of Business and Science talabasi

Annotatsiya: Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni differensial tashkil etish uchun har xil tamoyilli tasniflash mavjud. Buni ilmiy tadqiqot institutlari xodimlari, Rossiyaning qator maxsus maktab internatlari ishlarida o‘rgana boshladilar. Ushbu maktab o‘quvchilarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bu maktablarda o‘qitish ishlari asosan birlamchi nuqsonni hisobga olgan holdagina olib borilar ekan.Ushbu maqola orqali kar-soqov bolalarning toifalari ularni sabablari va ko‘rinishlari o‘rganiladi. Pedagogik tasniflashni har bir surdopedagog uchun puxta bilish, har bir toifa bolalarni keng ma’noli, maxsus bir maqsadga yo‘naltirgan ishlarni olib borishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tasnif bo‘yicha bolalar maxsus muassasalarga yo‘llanma oladilar.

Kalit so‘zlar: eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, soqovlik, zaif eshituvchi bola, daktilologiya, eshitish, nutq apparati, surdopedagog.

Kirish. Birinchi tasniflash XVI asrga to‘g‘ri keladi. Italiya olimi D.Kardano 3 guruh karlarni ajratishda karlikning vujudga kelish vaqtiga bog‘liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan:

1. Tug‘ma karlar.
2. Erta kar bo‘lganlar (nutqi rivojlangunga qadar).
3. Kech kar bolganlar (nutqi saqlanib qolganlar).

XVIII asr Fransuz pedagogi R.A.Sikar eshitish nuqsoni har xil boigan bolalarni guruhlarga bo‘lishni va ularni bo‘lak holda o‘qitishni taklif qilgan. XIX asrning birinchi yarmida rus surdopedagogi V.I.Fleri kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni, kech kar bo‘lib qolganlarni va zaif eshituvchilarni bo‘lak holda o‘qitish kerakligini taklif qilgan. Ya.T.Speshnev tomonidan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola lar nutq saviyasini yaxshilash bo‘yicha differensiallanadi, asosiy nuqson darajasi hisobga olinmaydi. Bunday hoi ularni o‘qi tish mobaynida kerakli samara bermadi. Eshitish qobiliyati juda nuqsonli bo‘lgan bolalarning yuqori o‘zlashtiruvchanliklari boshqa tomondan eshitish qobiliyati saqlangan bolalarning nuqsonli bo‘lgan o‘zlashtiruvchanliklari kuzatiladi. Bunday holatda esa o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilarni aqliy rivojlanishi bo‘yicha ajratib o‘qitishga majbur qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi: Parijdagi kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar instituti vrachi J.Itar besh guruh karlarni ularning tovushlar va nutqlar eshitishiga qarab ajratgan:

• yuqori nutq va tovushlarni qulog‘ining yaqinida eshituvchi lar;
• unli va undoshlarni ajratuvchilar;
• ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
• nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshituvchilar;
• umuman eshitishida nuqsoni bo‘lganlar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Peterburg kar va zaif eshituvchi o‘quvchilar bilim yurtida Ya.T.Speshnev ikkita bo‘linma tuzdi:

• turli xildagi nutqlarga ega bo‘lgan kar bolalar uchun;
• imo-ishora asosida muloqot qiluvchilar uchun.

L.V.Neyman bolalik davrida eshitish qobiliyatining buzilishini o‘rganish va tasnifini yaratish tarixida uch bosqichni belgilaydi:

• kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarda eshitish qobiliyatini tekshirishni tizimlashtirish boshlang‘ich urinishidan, toki amaliyotda eshitishni o‘lchagich uskunasini kamerton to‘plamidan foydalanishni amaliyotda qo‘llash;
• kamertondan to audometrgacha bo‘lgan davr;
• hozirgi talabga javob beradigan amaliyotga kiritilgan audiometr.

L.V.Neyman eshitish chastotalari maydoni yordamida qabul qilish diapazoniga asoslanib, karlarni 4 ta gruhga ajratai:

1-gruhda eng nuqsonli bo‘lgan chastotalarni qabul qiladigonlar -125-250 Gs.

Bu bolalar tovushlarni birontasiniham ajrata olmaydilar, faqat quloq oldida balant ovozni eshitadilar.

2-guruh 125-250-500 Gs. chastotalarni qabul qiladi bu bolalar faqatgina eshitibgina qolmay , ,, o” , ,,u” unlilarni ajratadilar.

3-guruh nuqsonli bo‘lgan va o‘rtacha 125-250-500-1000 Gs. Chastotalarni qabul qiladi bu guruh bolalari quloq oldida so‘zlashuv balantligidagi ovozlarga etibor beradilar.

4-guruh 125-2000 Gs. Bu guruhdagi ko‘pchilik bolalalar quloq oldida va uzoq bo‘lmagan masofadagi gaplarni eshitadilar.

Zaif eshituvchilarda mustaqil nutq jarayonining qiyinlashuvi, eshitish qobiliyatining pasayishi 15-20 dB da hosil bo‘ladi. Buni L.V.Neyman yaxshi eshituvchilar bilan zaif eshituvchilar o‘rtasidagi taxminiy chegara deb qabul qilishni taklif etadi. Zaif eshituvchilar bilan karlar o‘rtasidagi taxminiy chegara esa 80 dB dir. L.V.Neyman tomonidan yaratilgan eshitish nuqsoni tasnifi, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning pedagogik tasnifmi ilmiy ta’riflashga ko‘ra, maxsus differensiallab o‘qitish kerakligini tasdiqlaydi.

R.M.Boskis tomonidan tuzilgan pedagogik tasnif eshitish qobiliyatining nutq bilan psixologik bog‘lanishiga asoslangan. Tasnifning nazariy asosini quyidagi holatlar tashkil etadi:

• eshitish qobiliyatining buzilish darajasi;
• eshitish nuqsoni yuzaga kelgan vaqti;
• eshitishning yo‘qolganidan so‘ng bolaning qaysi pedagogik sharoitlarda bo‘lishi; • bolaning yakka xususiyatlari.

R.M.Boskis eshitishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarni ikkita asosiy toifaga bo‘lgan: karlar va zaif eshituvchilar. Kar bolalar sirasiga tug‘ma yoki erta yoshda orttirgan karlik natijasida nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiritilgan. Zaif eshituvchi bolalar qatoriga eshitish qobiliyati pasaygan bo‘lsada, minimal darajada nutqni mustaqil egallay oladigan bolalar kiritilgan. R.M.Boskis bu toifa bolalarni ikki guruhga bo‘ladi. Erta kar bolib qolganlar (2-3 yoshgacha). Ular umuman nutq malakalariga ega bo‘lolmaganlar. Kech kar bo‘lib qolganlar. Karlik kelib chiqishidan oldin ular ma’lum nutq malakalarini egallashga muyassar bo‘lganlar va bu malakalarining ma’lum darajasi saqlangan bo‘ladi.

Erta yoshda zaif eshituvchi bo‘lib qolgan bolalarning nutqiy rivojlanishini eshitish qoldiqlari asosida tabiiy sharoitda, ya’ni tabiiy muloqotda olib borish mumkin. Kar bolalar nutqini shakllantirish, saqlangan analizatorlarni ishlatish, kompensatsiyalash asosida maxsus ta’limga tayangan holda amalga oshiriladi.

1-guruhdagi kar bolalar kar bolalar maktabida ta’lim olishga yo‘llanma oladilar. Ushbu maktablarda bolalarni bilimlar bilan qurollantirish so‘zlashuv nutqini rivojlantirish bilan birgalikda jadal ravishda olib boriladi.

2-guruhdagi kar bolalar zaif eshituvchi bolalar maktablarida ta’lim olishga yo‘llanma oladilar.

3- va 4-guruhdagi kar bolalar kam intensiv va tovush chastotasi xarakteri bo‘yicha katta farqli tovushlarni juda yaqin masofada ajrata oladilar.

Karlik -eshitish qobiliyatining umuman yo‘qolganligidir. Bundan nutqni mustaqil egallay olmasligi hamda o‘zgalar nutqini faqat eng yaqin masofada idrok etish holatlari mavjud. Total karlik kam uchraydi.

Zaif eshitish -eshitish qobiliyatining pasayishi. Bunda zaif eshituvchi eshitish funksiyasi saqlangan holda ma’lum bir minimal nutq zaxirasini mustaqil egallay olish imkoniyatiga ega.

Kar-soqov bolalar. Soqovlik - tug‘ma karlik yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi. Nutqni saqlab qolgan kar bolalar. Maktab yoshida yoki bog‘cha yoshida kar bo‘lib qolgan bolalar nutqi ustida maxsus ish olib borilsa bolaning nutqini saqlab qolish mumkin, agar bunday ishlar olib borilmasa bola bor nutqini ham yo‘qotadi. Karlarda eshitish qobiliyati butunlay yo‘qolmaydi, ko‘pchiligida ozgina bo‘lsa ham saqlanadi. Kuchli tovushni ajratishadi, ayrimlari qulog‘i oldida gapirganni qabul qilishadi. Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar. Keyinchalik kar bo‘lib qolgan bolalar, ya’ni maktab yoshigacha yoki maktab yoshida kar bo‘lib qolganlar. Ular kar bo‘lishidan oldin orttirgan nutqini qisman bo‘lsa ham saqlab qolishadi. Nutqning saqlanib qolish darajasi bir qator sabablarga bog‘liq bo‘ladi:

a) bola o‘sib va rivojlanayotgan muhitga

b) nutqni o‘stirish uchun ishlar olib borilganligi yoki olib borilmaganligi;
d) eshitishni qisman bo‘lsa ham saqlanganligi yoki butunlay yo‘qligi;
e) eshitishning saqlangan qismini ishlata bilishligi va h.k.Agar nutqni rivojlantirish ustida ish olib borilmasa, 4-5 yoshida eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalar maktab yoshiga yetganda gapirmaydilar. 2-3 yoshda eshitish qobiliyati buzilgan bolalar bilan nutqni rivojlantirish maqsadida maxsus ish olib borilsa, ularning nutqi yo‘qolmasdan aksincha rivojlanadi.

Sabablari: yuqimlik kasaliklar ichida epidemik ensefalit asosiy sabablardan hisoblanadi. Burun va tomoq kasaliklariham eshitish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning asab sistemasini malum darajada buzishi mumkin.

Daktilogik -barmoqlar alifbosi deb ataladigan usulda kar bolalar o‘zaro muloqotda bo‘lishlari mumkin. Bunda so‘z ifodasidagi harflar barmoqning turli holatlari bilan belgilanadi.

Xulosa: Karlarning o‘zaro muloqoti o‘ziga xos imo-ishora vositasida amalga oshiriladi. Albatta bunday imo-ishoralar juda sodda ko‘rinishga ega. Lab qimirlashidan o‘qib olish malakasi osonlikcha kechmaydi. Bu usulni hamma karlar barobar o‘zlashtira olmasliklari mum kin. Har holda bu usul karlarning atrofdagilar bilan aloqada bo‘lish omili bo‘ladi.

Muntazam ravishda lor shifokori nazorati o‘tkazilib turilganda, quloq kasalliklarining davolash tugallanmagan holatlarini ham uchratib qolish va shoshilinch ravishda davolashni davom ettirish mumkin. Oxirgi paytlarda eshitish qobiliyatini yo‘qotgan bolalar uchun ovozni kuchaytirib beruvchi juda qulay va shinam tranzistor apparatlar ishlab chiqarilib, ular quloqning ovoz eshitish

kanaliga o‘rnatib qo‘yiladi. Mitti batareykali individual eshitish apparatlari, tranzistorlar 4, 3, 2 guruhga kiruvchi bolalar uchun ayni muddaodir. Individual eshitish apparatlari bilan ta’minlangan bolalarni pedagogik tarbiya jarayonlaridagi o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ular talaffuzidagi iboralarning noaniqligi, jarangli bo‘lmasligi, ifodadagi harflarning cho‘zilib ketishidir. Shu sababli pedagoglar har bir bola bilan individual ravishda nutqning to‘g‘ri ifodali bo‘lishi, to‘g‘ri talaffuzi yuzasidan olib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Po‘latxo‘jayeva M.R. Defektologiyaning klinik asoslari. O‘quv qo‘llanma. - T.: TDPU - 2013.

2. Алимов Х.А., Манасыпова И.Х. Некоторые вопросы организации и развития психиатрической помощи в Узбекистане. Труды Ташкентской психиатрической больницы. III том. -Т.: 1996.

3. Аграновский М.JI. Общая медицинская психология и психопатология. Андижан. «Андижон», 2004.

4. Sodiqova Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh ftziologiyasi va gigiyenasi. -T.: «Yangi asr avlodi», 2009.

5. McGill-Franzen A., Allington R.L. (Eds.) Handbook of Reading Disability Research. Routledge, 2011. 522 p.

6. David Ronald. Clinical Pediatric Neurology .Third edition. Demos Medical Publishing, 2009. -640 p.

7. Armstrong D., Halliday W., Hawkings C., Takashima S. Pedi atric Neuropathology: A Text-Atlas. Springer Japan, 2007. -426.

8. Aytmetova S.Sh. Yordamchi maktab o‘quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari. -T: «O‘qituvchi», 1984.